

BODRING NAVLARI URUG‘ CHILIGINI TIKLASH VA SIFATLI URUG‘ YETISHTIRISHNING AHAMIYATI

Yaxshiboyev Dilshod Narzullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti

Aannotatsiya:

ushbu maqolada bodring navlari urug‘ chiligini tiklash va sifatli urug‘ yetishtirishning ahamiyati xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so’zlar: urug’chilik, nav, tur, urug’tanlash, seleksiya, saqlash.

Аннотация:

В этой статье даются соображения о важности восстановления семеноводства сортов огурцов и получения качественных семян.

Ключевые слова: семеноводство, сорт, вид, селекция, селекция, хранение.

Annotation:

this article gives ideas on the importance of restoring the germination of cucumber varieties and producing quality seeds.

Keywords: seeding, cultivar, species, seeding, selection, storage.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘ lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘ chilik va ko‘chatchilik sohasida ilg‘or xalqaro tajriba va ilmiy asoslangan zamonaviy resurs tejaydigan va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, duragaylarni yaratish, intensiv sog‘lom ko‘chatlar yetishtirish, nav mualliflari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarini (nav originatorlari) huquqiy himoya qilish va rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi



mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni sifatli urug‘ liklar va ko‘ chatlar bilan barqaror ta’ minlash tizimini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, davlat dasturida qishloq xo‘ jaligi ekinlari nav mualliflari, ilmiy-tadqiqot institutlarini faoliyatini takomillashtirish, ilmiy muassasalar va urug‘ chilik xo‘ jaliklari salohiyatini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni va boshqa tadbirlarni nazarda tutuvchi urug‘ chilik va ko‘ chat yetishtirish sohasida milliy dasturni amalga oshirish bo‘ yicha vazifalar belgilangandi.

AQSh, Kanada, Shvetsiya, Fransiya, Hindiston, Yaponiya kabi mamlakatlarda ekinlarning yuqori hosil beradigan, kasalliklarga chidamli, mahsulotining sifati yaxshi, boshqa muhim belgi va xususiyatlari bilan mashhur bo‘ lgan seleksion navlari ko‘ pdir. Ulardan seleksiyada, ayniqsa duragaylash yo‘ li bilan boshlang‘ ich ashyo yaratishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Bodring mevasi asosan 7-10 kunligida yangi uzilgan holida iste’ mol qilinadi. Ekish uchun tavsiya etiladigan navlar. Bodringni Ranniy – 645, O‘zbekiston – 740, Navro‘z, Omad, Talaba va chet el duragaylaridan Alibi, Asteriks, Regal, Ayaks, Superina kabi navlari ekiladi.

Urug‘ tanlash. Ekiladigan bodring urug‘ i toza, unuvchanligi yuqori, kasalliklardan xoli, butun va to‘ la bo‘ lishi zarur. Urug‘ lar boshqa o‘ simliklar urug‘ lari va aralashmalaridan tozalanadi. Urug‘ lar ekish oldidan iliq suv yoki o‘ sishni boshqaruvchi moddalardan birida 10– 12 soat davomida ivitib qo‘ yiladi.

Yerni tayyorlash. Bodring uchun unumdor, gumus miqdori yuqori bo‘ z va o‘ tloqi bo‘ z tuproqlarga ekish maqsadga muvofiq. Urug‘ ekiladigan maydonlar o‘ tmishdosh ekin qoldiqlari va begona o‘ tlardan yaxshilab tozalanadi. 1 sotixga 200 kg (10 sotixga 2 tonna) chirigan go‘ ng solinadi. Chirigan go‘ ng bilan birgalikda mineral o‘ g‘ itlar solinadi. Tuproq 30– 35 sm chuqurlikda chirigan go‘ ng va mineral o‘ g‘ itlar bilan aralashtirilib yumshatiladi. Yirik kesaklar maydalangach, yaxshilab tekislanadi va sug‘ orish egatlari olinadi.

Ekish muddati va sxemasi. Ertagi bodring janubiy mintaqalarda ochiq maydonlarda 1– 10-aprelda, markaziy mintaqada joylash-gan va vodiylarida 10– 20-aprelda, shimoliy mintaqalarda 20– 30-aprelda; o‘rtagi muddatda janubiy viloyatlarda 20-aprel – 5-may, markaziy mintaqada joylashgan viloyatlarda 1– 10-

may, shi-molda 1– 15-may, kechki bodring janubda 10– 20-iyulda, markaziy mintaqalarda 15– 30-iyun, shimoliy mintaqalarda 15– 25-mayda eki ladi. Ertagi mahsulot yetishtirish uchun $70+140/2 \times 40$ sm sxemada urug‘ ekiladi. Bunda qatorlar orasi 70 sm, pushlaral orasi 140 sm va o‘ simliklar oralig‘ i 40 sm.ni tashkil etadi. Urug‘ lar qo‘ lda 4– 5 sm chuqurlikka ekiladi. Urug‘ sarfi 1 sotixga 20– 30 gr (10 sotixga 200– 300 gr).

Parvarishlash. Unib chiqib nihollar paydo bo‘ lganda birinchi va 2-3 ta chinbarg paydo bo‘ lgandan keyin esa ikkinchi marta ya-gana qilinadi. Qator oralarini qo‘ 1 kuchi yordamida ketmon bilan 15– 16 sm chuqurlikda o‘ simlik atrofi bilan yumshatib turish, mine ral oziqa va suv berib borish kerak. Suvga talabchanligi jihatdan bodring sabzavot ekinlari orasida birinchi o‘ rinda turadi. Naycha-lash va mevasi yetila boshlagan davrda bodring suvni ayniqsa ko‘ p talab qiladi.O‘ suv davri mobaynida sizot suvlari yaqin joylarda 8-9 marta sizot suvlari chuqur joylashgan maydonlarda esa 12-14 mar-ta sug‘ oriladi. Har ikki-uch sug‘ orishdan keyin qator oralari 15– 16 sm chuqurlikda yumshatib boriladi.

O‘ g‘ itlash. 1 sotix yerdag‘ bodring sof holda 5,8 kg sulfat am-moniy, 2,2 kg ammosfos, 1,5 kg kaliy xlor o‘ g‘ itlari bilan oziqlan-tiriladi. Bodringni oziq moddalarga talabi yuqori. O‘ suv davri davomida 1-2 marta qo‘ shimcha Gummat print, Roslin va Nitrolin kabi moddalar bilan oziqlantiriladi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Bodring urug‘ larini 1 kg ga 2 foizli 34% Vitavaks, 1,5% li 60,7% Previkur bilan ishlov berish ayrim kasalliklarni oldini oladi.

Bodringni pashshalar, shiralar, tripslar, oqqanot ko‘ proq zararlay-di. O‘ simlikning o‘ suv davrida 10 sotix yerga hashoratlarga qarshi hosilni yig‘ ishdan 20 kun oldin ikki marta Atilla super 10% m.k. yoki Mospilan 20% n.kuk. (25– 30 g) sepiladi. Antraknoz, peronosporoz, askoxitoz, dog‘ lanishlar, bakterioz va un shudringlar kasalliklarga qarshi Kolosal Pro m.k. (200– 300 g/l), Pinko 10% em.k. (0,25 l/ga), Kurzat R n.kuk. (200– 250 g) yoki 1 foizli Bordo suyuqligini qo‘ llash mumkin. 60– 70 litr suvga tayorlangan aralashma ishlatiladi.

Hosilni yig‘ ishtirish. Bodring mevalari 5 sm dan katta bo‘ lgan-dan boshlab xosili yig‘ ib olinadi. Xosil xar 2-3 kunda bir teriladi. Yig‘im-terim jarayonida o‘simlik palaklariga zarar yetkazmaslik lozim. Vaqtida terib olinmagan xosil sarg‘ayib ketadi.





XULOSA

Bodring issiqsevar o'simlik. Urug'i unib chiqishi uchun minimal harorat 12-13C, harorat past bo'lganda esa urug'lar bortsada, unib chiqsa olmaydi, oqibatda tuproq ichida chirib ketishi mumkin. Maqbul sharoitlarda, yani 25-30C urug'lar 5-6 kunda unib chiqadi. Bodring o'simligi o'sib rivojlanishi uchun maqbul kunduzgi harorat 25-32C, kechasi esa 16-18C. Kunduzi harorat 12-15C dan pasayganda o'sishi sustlashadi, chang hosil bo'lishi qiyinlashadi, barglari kichrayadi. Past haroratlari sharoitlarning uzoq davom etishi barglarining sarg'ayishi, ildiz tizimi faoliyatining sustlashishi va ohir-oqibatda o'simligining nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tuproq harorati ham bodring o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Tuproq harorati 16C dan past bo'lganida ildizning tuproqdan suv va mineral moddalarni so'rishi sustlashadi, ildiz atrofi patogen mikroflorasi (*Phythium* va boshalar) rivojlanadi. Yuqori hararotlar (40C<t) ham bodring o'simliklariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo ular qondirib sug'orilsa va yorug'lik nurlari etarlicha bo'lsa o'sib, meva hosil qilaveradi. Yuqori harorat va havoning namligi past bo'lgan sharoitlarda ayniqsa ko'p suv talab qiladi. Bodring qisqa kun o'simligi, ammo hozirda uning uzun kun sharoitlarida o'sa oladigan issiqxonalar uchun navlari yaratilgan. Bodring tuproq namliga va havoning nisbiy namligiga juda talabchan ekin turidir. Tuproqda namlik etishmasa o'sishi sustlashadi, kunduz kuni barg turgori yo'qolishiga (so'lishiga), asosan erkak gullar paydo bo'lishiga va mevalarida achchiqlik paydo bo'lishiga olib keladi. Shuningdek tuproqning keskin nam bo'lishi, masalan tuproqning suvga bo'kib qolishi ham qisqa muddat ichida bodring o'simligining nobud bo'lishiga olib keladi. Vegetasiya davrining davomiyligiga qarab ertapishar, o'rta-ertapishar va kechki navlarga bo'linadi. Ertapishar navlar unib chiqqandan so'ng 32-48 kunda, o'rta-ertapishar navlar 50-55 kunda, kechkilari esa 55-70 kunda meva tugib boshlaydi.

ADABIYOTLAR

- Doijode, S. D. (2001). Seed storage of horticultural crops. Haworth Press. ISBN 1-56022-901-2 p. 28.
- Renner, SS; Schaefer, H; Kocyan, A (2007). "Phylogenetics of *Cucumis* (Cucurbitaceae): Cucumber (*C. sativus*) belongs in an Asian/Australian clade far

from melon (C. melo)". BMC evolutionary biology 7: 58. doi:10.1186/1471-2148-7-58. PMID 17425784. PMC 3225884.

3. Cucumis hystrix. Newstrackindia.com (2010-07-21). Retrieved on 2012-11-25.

